

## ARAB ALIFBOSINI O'RGANISHDA ABJAD USULINING O'ZIGA XOS XUSUIYATLARI

*T. Iskandarov*<sup>1</sup>

*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada arab alifbosini o'rganishda Abjad usulining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida so'z yuritiladi.

*Kalit so'zlar:* arab alifbosi, harflar, Abjad usuli.

*doi:* <https://doi.org/10.2024/27y3h262>

---

Ma'lumki arab alifbosi 28 harfdan va yarim tovushli hamza belgisidan iboratdur. Aytish joizki bu harflarni o'rganishga g'oyri arab o'rganuvchi insonlarga hozirgi davrda muayyan qabul qilingan umumiy uslub mavjud emas.

O'zbekistonda nashr bo'lgan darslik kitoblarda bu mas'ala hamon rus arabshunoslik tomonidan o'tgan asrning 30-yillarda qabul qilingan yagona uslub bilan dars olib bormoqdalar. Bu uslubda qo'yidagicha kamchiliklar mavjud;

1. Birinchidan bu uslub ruslar yoki yevropaliklar tillari sistemasiga moslashgan bo'lib, har bir harfni alifdan boshlab to yo gacha alohida-alohida Ruscha va yevropacha talaffuz usuli bilan o'rgatiladiki va bu birinchidan o'rganuvchini ko'p vaqtini oladi .

2. Ikkinchidan harflar to'liq o'rganish jarayoni har bir harfni o'rganishga mashg'ulot bilan 3-4 soatdan vaqtini sarflashni talab qilinadi. Natijada oylar, yillar vaqtini o'rganishga sarflashga to'g'ri keladi.

Yangi har bir harfni talaffuzini shakllarini to'g'ri yozilishini biroz qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ayniqsa bizning millatimizga arab alifbosini o'rgatishga ko'p vaqtini sarflashga to'g'ri keladi.

Ma'lumdirki arab alifbosi ikki ko'rinishga va to'rt ko'rinishda, umumiy shakli, so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida yoziladi. Ularning o'zaro bog'lanishi o'quvchi talabalarda biroz muammo keltiradi va hafsalasini pir qiladi. Bu mushkulot ular oldida arab tilini o'rganish qiyin degan fikrni keltiradi.

3. Uchunchidan arab alifbosining ovrupa usulida o'rganishi inson tafakkurini suslashadi.

Harflarning yozilishida tafakkur zaiflanadi. Harflarni o'rganishda bir harfni ikkinchi harf bilan bog'lanishida qiyinchiliklar yuzaga keladi.

4. To'rtinchidan arab alifbosini o'rganuvchilar yozishdan uzoqlashib o'qishni afzal bilib qolishadi.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki arab alifbosini o'rganishda ikki xil usul yuzaga keldi. Birinchi guruh o'rganuvchilari arab alifbosini yozishdan ko'ra o'qishni afzal ko'rdilar. Natijada yozish orqada qolib ketdi. Tolibul ilmni harflarni o'qishi yodda tez qolib, ammo ularni yozilishi ulardan ajralib qoladi.

Ikkinchi guruh arab tilini o'rganuvchilari yozishni o'qish bilan birgalikda o'rganadilar, ammo ularga o'rganish muddati yanada olti oydan bir yilgacha vaqt sarflaydilar.

---

<sup>1</sup> *Iskandarov Turabek*

Bu vaziyatdan kelib chiqib arab harfini yozuvi va husni xattini o'rganishi rivojlanmadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki qariyb 100 nafar o'rganuvchilardan faqat 10-15%I husni xat-chiroyli yozishni o'rganadilar, qolganlarning husni xatini o'qib bo'lmaydi. Aytish joizki bu holatda arab alifbosini, ayniqsa g'oyri arab bo'lgan mamlakatlarda o'rganishi nihoyatda qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

O'rganuvchilarni orasida o'rganish mas'alasi, miqdor jihatidan juda oz miqdorini tashkil qildi. Bu masalani o'rganishiga birinchilardan bo'lib O'rta osiyoni arablar tomonidan bosib olgandan keyin 200 yil o'tib IX-asrdan boshlab fors-tojik olimlari xat yozishni va o'rganishni usullarini o'ylab chiqdilar.

Bu olimlar yangi ixtiro qilgan usullarni arab alifbosini o'rganish va yozish bo'yicha abjad usuli deb atashdilar;

Abjad usuli arab alifbosini avvalo to'rt harfdan boshlashni ا -Alif, ب -ba, ج jim, ح ha va د -dal harfi, bularni to'plamini الأَبْجَد - abjad deb nomladilar. Bu usulda to'rt harf bo'lib bulardan ikkitasi ikki ko'rinishli va qolgan ikkitasi to'rt ko'rinishli harflardan iboratdir.

Bu uslubni yozishda, ulamolar arab alifbosining ikki xil-virtikal yozish va gorizantal usulni qabul qildilar. Abjad usulida uchta harf \_alif, ba va dol(d) harflar \_chiziqning ustida va qolgan jim(j) harfi chiziqni ostida yozilishini talab qildilar. Shu tariqa arab yozuvi chiziqni usti va ostiga yoziladigan bo'ldilar. Bu usul bilan arab yozuvi osonlashtirgan bo'lsa ham, harflar nuqtasiz yozilgan sababli ularni o'qishi mushkil edi. Keyinchalik harflarning ustida va ostida nuqtalar qo'yib o'qishni yengillashtirdilar. Shu tariqa arab alifbosida bir guruh harflar borligi ularni nuqtalarini izofaviy usulidan boshqa harfga tabdil beradilar. Masalan: Ba harfi chiziq ustida hisob daftarini xonachalarini ikki xonachasida vertikal va gorizantal ulashtirilib yozildi. Va tagiga nuqta qo'yib ba harfi deb ataladi. Shu tariqa Ba harfini negizidan ت -Ta harfi va ث -sa harfi hosil qilindi. د Dal harfini ustiga bir nuqta qo'yish bilan ذ -zal harfini hosil qilindi. Shu bilan o'rta asrda arab alifbosini o'rganishda bir negizli, bir turkumli harflarni olib o'rganish kerak deb iddao qildilar. Ammo bu usul ham rivoj topmadi. Sabab shuki harflarni bir biriga qo'shib yozishda harflarga haddan nuqtalar ko'payib o'qishga va yozishga qiyinchilik to'g'dirdi.

Keyinchalik bu usuldan vos kechib arab xattolari Abjad usuli ya'ni uch yoki to'rt harfni bir-birovi bilan bog'lanib o'rganishni qabul qildilar. Bu usulda bir harf yo ikkita harf chiziqni usti yo ostidan yozib ularni talaffuziga ham e'tibor berdilar va nuqtalarni ham joini aniqlab yozdilar. Yana har bir harfni ikkinchi harf bilan bog'lab so'z, kalima tartib berishni ham yo'lga qo'ydilar. Natijada o'rganuvchi harflarni ustki, ostki yo'nalishini bilgach so'z hosil qilishni o'rgandilar. Shu tariqa bir harfni yozishda inson uchta tamoilga ega bo'ladi, miyaning faoliyati rivojlanadi. 1. Ko'z 2. Qo'l 3. Fikr.

Ko'zni vazifasi harflarni bir-birovi bilan to'g'ri nazorat qilish; Qo'lni vazifasi chiziqni to'g'ri chizish har bir harfni qaddi qomatini va usullarini to'g'ri hisoblab yozish, jarayonining tartibga solish, nazorat qilishdir;

Nuqtalar belgilarni joyiga qo'yish masalasi ni ham nazorat qiladi.

3. Fikr orqali o'rganuvchi diqqat e'tiborini harflarni to'g'ri yozishga va to'g'ri talaffuz qilishga harakat qiladi. Shu tariqa abjad usuli ilmi toliblarga hushyorlik, zehinlik usulini o'rgatadi. Natijada o'rganuvchi har narsaga e'tibor bilan, aql bilan o'zlashtirishga undaydi. Insonda botiniy mantiq rivojlanadi.

4. Abjad to'rt harfni barobar yozishni o'rganish bilan, o'rganuvchi fikr-aqlini yo'lga solib ulardan so'z tartib beradi.

Masalan: Alif, ba, jim va dal. Bu to'rt harflarni yozishni o'rganish bilan quyidagi so'zlarni arab tilida جاء jaa kelmoq جَدَّ jaddu- bobo, أجداد - bobolar, باب baab eshik, دار daar-hovli, اب-ab- ota va shunga o'xshash narsalarni yasashni imkonini beradi.

Fors-tojik tilida harflardan soʻzlar yasash ham quyidagicha yasaladi; masalan: bab-eshik, boba-bobo va hokazo soʻzlarni hosil qilish mumkin. Bu usul bilan eski oʻzbek yozuvini oʻrganuvchilar uchun ham qoʻllanishi mumkin. Bu usul bilan arab harflarini oʻqish va yozishni oʻrganish ham osondir. Arab alfavitini 8ta dars bilan oʻrganishi mumkin. Bu 8ta dars quyidagi qismlardan tashkil topgan: ABJD, HVZ, HTI, KLMN, SA'FS, QRSHT, S'XZ, Z'Z'G'. Har bir darsga ikki soat ajratib tilni 16 soat mobaynida to'liq yozishni va o'qishni o'rganish mumkin.

Shu tariqa bu usul bilan harf ichida harf qoʻshilib soʻz yasaladi va soʻzlardan iborat jumlar yasalishi oson boʻladi. Men bu usulni zanjir usuli deb atadim. Har bir harflar bir-biriga qoʻshilib soʻz va jumlar hosil qilinadi.

Men shu usulda arab alifbosining oʻrganuvchilari uchun 40 yil davomida dars berib koʻp tolibul ilmlarga bayon, insho yozishni oʻrgatdim va ularni kamol topishlarida koʻmaklashdim.

Abjad usuli bilan arab alifbosining asli negizida ikkinchi maʼno ham bor. Aslida qadimgi tillarning negizi boʻlmish Oromiy tilida bu usul bilan ikki koʻrinishda 1, harflarni yozish va 2, harflar anatomiyasiga cifr, raqamlarning bayon etishi joylashgan. Kelajakda bu holat yani sifrlar, raqamlarni harflar tartibida joylashishi sanskrit va ibrit tillariga ham koʻchiriladi.

Tilshunoslik ilmida bu hodisani yoki bu kodni Gemotriya deyiladi.

Bu usul bilan arab alifbosini 28ta harfi quyidagicha raqamlanadi:

1. Alif-bir-1

2. ba-2

3. jim(j)-3

4. dol-4

Abjd-jami-10 boʻladi

5. h-havas-5

6. v-vov-6

7. z(ze)-7

Hvz jami-18 boʻladi

8. H-ho'tti-8

9. To itqi-9

10. E-10

HTI-ni ja'mi 27 adad boʻladi.

11. k-kof harfi-20

12. l-lom harfi-30

13. m-mim harfi-40

14. n- nun harfi-50

KLMN-harflarning ja'mi-140 adad boʻladi

15. S-Sin harfi-60

16. A'in harfi-70

17. F-Fa harfi-80

18. S-Sod harfi-90

SA'FS jami-300 adad boʻladi

19. Q-Qof harfi-100

20. R-Re harfi-200

21. Sh-SHin harfi-300

22. T-Ta harfi-400

QRSHT jami-1000 adad boʻladi

23. S-uch nuqtali -Sa harfi-500

24. X-xa harfi-600

25. Z'-Z'OL harfi-700

SXZ' ja'mi-1800 adad bo'ladi

26. Dze-nuqtali sod harfi-800

27. Z-zo-izg'I harfi-900

28. G'-g'ain harfi-1000

DZZG'- jami-2700 adad bo'ladi.

Ko'pincha tojik-fors adabiyotida shoirlar bu usul bilan tug'ilgan kun, voqea-hodisalarning kelib chiqishini, tarixi obidalarning qurilishini sanalarini bayon etganlar.

Bu usul bilan arab alifbosini o'rganishi o'quvchiga quydagi foidalarni yuzaga keltiradi:

1. Vaqtni tejalanadi.

2. Husni xat yaxshilanadi.

3. Miya faoliyati rivojlanadi.

4. So'z, gap tuziladi va hatto matn yasashda qo'llaniladi.

5. Fikrni ravon, to'g'ri va mantiqli bayon etishni o'rganadi.

6. Arabiy-badiiy matnlarni ifodalashga va falsafiy qarashlarni rivojlantiradi.

7. Abjad hisobi bilan matematik, arifmetik hisob kitoblarning ifodalanadi. Bu usulni birinchilardan bo'lib sanskrit matnlarda rivojlantirdilar.

8. Xotirani mustahkamlashga va uning rivojlantirishga yordam beradi.

Tilshinoslik tarixida bu usul birinchilardan Oromi xatdan, Sanskrit va Ibrit xatlarida istifodalangan

O'rta Osiyoda X-asrlardan boshlab kirib kelgan. Hususan XIV-XVIII-asrlargacha Samarqand-Buxoro va Hindistonda shoirlar olimlarning kundalik ejodlariga istifoda qilingan. Bu usul bilan tug'ilgan kunni, binolarni qurilish sanasi va tarixi voqea-hodisalarni bayon etganlar va hatto ularni kun, oy va yillarini aniqlab yozganlar.